

TURKIYA IQTISODIY DINAMIKASI: INFLATSIYA, ISHSIZLIK VA SAVDO
BALANSINING IQTISODIYOTDAGI ROLI

Tursunova Sabrina Ulug'bek qizi

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 1-bosqich
talabasi tursunovasabrina749@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropa va Osiya qit'alarining kesishgan, muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan Turkiya Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Azaldan Turkiya muhim savdo markazi bo'lib kelganligi uning kelgusidagi iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatganligi haqida fikr yuritiladi. Turkiyaning iqtisodiyoti bir qator global va ichki jarayonlar ta'sirida shakllanganligi: pandemiya oqibatlari, inflatsiyaning ortib borishi, milliy valyutaning qadrsizlanishi, ishsizlik bilan bog'liq holatlar, import hajmining eksportdan oshib ketganligi shular kabilar ko'rib chiqiladi. Turkiya iqtisodiyoti ma'lum davrlar oralig'ida sinovli kechgan bo'lsada, biroq bir vaqtning o'zida yangi imkoniyatlarga yo'l ochilganligi o'rganiladi. Qolaversa, Turkiyaning iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgan top kompaniyalar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Turkiya iqtisodiyoti, inflatsiya, ishsizlik, savdo balansi, YaIM, top kompaniyalar, daromad, milliy valyuta, global omillar, eksport, import.

Annotation: This article analyzes the macroeconomic indicators of the Republic of Türkiye, which is located at the intersection of Europe and Asia and has significant strategic importance. The fact that Türkiye has historically been an important trade center and its influence on the country's current and future economic development is highlighted. The formation of Türkiye's economy under the influence of various global and domestic factors is examined, including the consequences of the pandemic, rising inflation, depreciation of the national currency, situations related to unemployment and the predominance of imports over exports. In addition, although Turkey's economy has experienced complex and challenging periods at certain times, it is analyzed that these processes have simultaneously created new economic opportunities. Furthermore, information is provided about leading companies that have a significant impact on the country's economy.

Keywords: Turkey's economy, inflation, unemployment, trade balance, GDP, leading companies, income, national currency, global factors, export, import.


Аннотация: В данной статье анализируются макроэкономические показатели Турецкой Республики, обладающей важным стратегическим значением и расположенной на стыке Европы и Азии. Рассматривается роль Турции как одного из ключевых торговых центров на протяжении истории и её влияние на современное и перспективное экономическое развитие страны. Исследуется формирование экономики Турции под воздействием ряда глобальных и внутренних факторов, включая последствия пандемии, рост инфляции, обесценивание национальной валюты, ситуации связанные с безработицей а также превышение объёма импорта над экспортом. Кроме того, анализируется тот факт, что, несмотря на сложные и кризисные периоды в развитии экономики

Турции, одновременно создавались новые экономические возможности. Также приводится информация о ведущих компаниях, оказывающих значительное влияние на экономику страны.

Ключевые слова: экономика Турции, инфляция, безработица, торговый баланс, ВВП, ведущие компании, доход, национальная валюта, глобальные факторы, экспорт, импорт.

KIRISH

Hozirgi globallashuv zamonida Turkiya muhim geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega davlatlardan biri. Turkiya qadimdan muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan. XII asrda Turkiya Buyuk Ipak yo'lining muhim qismiga aylanishi natijasida savdo keskin rivojlangan. XIV-XV asrlarda Usmonli davlatining shakllanishi bilan iqtisodiyot markazlashgan bosqichga o'ta boshlagan. Shu davrda Istanbul, Bursa va Izmir xalqaro savdoning muhim markazlariga aylandi. Bugungi kunda ham Turkiya muhim iqtisodiy ahamiyatini yo'qotmagan. 2019-2024 – yillar davomida Turkiya iqtisodiyoti barqaror bo'lmagan, ammo o'sishga yo'naltirilgan dinamika kuzatilgan. 2019-2024 – yillarda milliy valyutaning qadrsizlanishi va inflatsiyaning ortishi sababli iqtisodiy o'sish pasaygan bo'lsada, 2021-yildan boshlab ichki ishlab chiqarishning va eksport hajmining ko'payishi hisobiga YaIM ning o'sishi kuzatilgan:



Turkiya yalpi ichki mahsuloti 2023-yil uchun 1,118 trillion AQSH dollarini tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 23,28 foizga o'sganini bildiradi. Bu o'sish asosan sanoat sektori, turizmning tiklanishi va xizmatlar bozorining kengayishi bilan amalga oshdi.

Turkiya iqtisodiyoti tarixida inflatsiya ko'pincha yuqori va beqaror bo'lgan. Tarixdagi eng muhim inqirozlar: 1994, 2001, 2018, 2021-2022. Bunga asosiy sabablar: Global shoklar, bo'sh Fiskal siyosati va narxlar indeksatsiyasi, valyuta kurslarining zaiflashuvi bo'lgan. Turkiyada inflatsiya darajasi 2019-yildan boshlab sezilarli ravishda ortib bordi. Ayniqsa, 2021-2023-yillarda inflatsiya Turk lirasining qadrsizlanishi va iste'mol narxlarining keskin oshishida kuzatildi. Inflatsiyaga moyil hudud sifatida tanilgan Turkiya davlati 2019-2024-yillar mobaynida ham sezilarli darajada inflatsiyani qayd etdi.

Turkiyada 2019-2024-yillar davomida inflatsiya yuqori darajada kuzatilgan bo'lsada, ishsizlik darajasida bir qancha ijobiy natijalarga erishildi. Ishsizlikka sabab bo'luvchi omillar sifatida aholi sonining tez o'sishi va yoshlar ulushining ko'pligi, urbanizatsiya natijasida shaharda ishchi kuchi taklifining oshib ketganligi kabilarni olish mumkin. Xususan 2019-yilda 13,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yil 13,3 foiz, 2021-yil 11,97 foiz, 2022-yil 10,47 foiz, 2023-yil 9,39 va 2024-yil 8,45 foizni tashkil etib, Turkiyada ishsizlik darajasi yildan-yilga kamayayotganini anglatadi.

Turkiya 2019-2024-yillarda tashqi savdo asosan salbiy ko'rinishda bo'ldi, bu davlatning import hajmi export hajmidan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Mazkur davr iqtisodiy va global omillar, pandemiya, energiya narxlarining o'zgarishi hamda milliy valyuta qadrsizlanishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, Turkiya export salohiyatini kengaytirish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali savdo balansidagi salbiy farqni bosqichma-bosqich bartaraf etishga erishdi. Xususan, importlar yiliga nisbatan 6,6% ga oshib, 31,4 milliard dollarga yetdi. Eng yirik import aloqalari Xitoy, Rossiya va Germaniya davlatlari bilan olib boriladi.

Eksport esa nisbatan sekinroq, yiliga 2,3% ga o'sib, 24,0 milliard dollarga yetdi. Turkiya savdo balansi doimiy o'sish sur'atida bo'lmasa ham, tashqi savdo hajmining kengayishi va eksport salohiyatining oshishi hisobiga mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib qolmoqda.



Turkiya iqtisodiyoti rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lib, mamlakatda yirik milliy va xalqaro kompaniyalar faoliyat yuritadi.

Kompaniyalar sanoat, xizmat va texnologiya sohasida muhim o'rin egallaydi. Turkiyadagi eng yirik kompaniyalardan biri – Koç Holding kompaniyasidir.

Ushbu kompaniyaning asosiy faoliyat yo'nalishi maishiy texnikalar va elektronika ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. "Beko", "Arcelik", "Grundig" kabi Turkiyadagi mashhur brendlarning egasi. Turkiyaning sanoat ishlab chiqarishda eng yirik tarkibiy qismi bo'lib, ichki va xalqaro savdoda ham o'zining kuchli o'rniga ega.

Eksportdagi roli ham muhim ahamiyatga ega, deyarli 60% eksport ushbu kompaniya hisobiga to'g'ri keladi.

Yana bir yirik kompaniya bu – Turkish Airlines. Aksiyadorlik kompaniyasi bo'lib, katta ulushi davlat hisobiga to'g'ri kelsada, xalqaro maydonda ham o'z aksiyalariga ega.

Fuqaro aviatsiyasi, yuk tashish va xalqaro havo transporti orqali daromadi 20,9 milliard dollarni tashkil etadi.

Yevropada 1-o'rinli havo samolyotlariga ega ekanligi kompaniya uchun yuksak e'tirofdir. QNB Turkiye(sobiq QNB Finansbank) Turkiyaning xususiy banklar orasida aktivlar, kreditlar va depozitlar bo'yicha eng yirik 5 bankdan biri. Bank keng tarmoqqa ega bo'lib, shaxsiy, korporativ va smol-to'liq xizmatlar orqali Turkiya iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Daromadi 3.66 milliard dollarni tashkil etishi va jahon banklari orasida 78-o'rinni egallashi bank faoliyatining samarali davom etayotganligidan dalolad beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, 2019-2024-yillar davomida Turkiya iqtisodiyoti murakkab tashqi va ichki omillar ta'sirida barqarorlikka intilgan holda rivojlanib kelgan. Mazkur davrda mamlakat yalpi ichki mahsuloti muayyan tebranishlarni keltirib chiqargan bo'lsada, davlat bu davr uchun ijobiy tendensiyani ushlab turishga harakat qildi.

Davlatda olib borilgan islohatlar, exportga yo'naltirilgan strategiyalar iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillar sifatida qayd etildi.

Umumiy olganda, bu davrda Turkiya iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish hajmining oshishi va export tarmoqlarini kengayishi bo'yicha muhim natijalarga erishgan bo'lsada, yuqori inflatsiya, valyuta qadrsizlanishi va savdo defitsiti hali ham asosiy muammo sifatida qolmoqda.

Kelgusi yillar uchun bu muammolarga atroflicha yechim topish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI:

1. World Bank Group. Olingan:

<https://www.worldbank.org/en/country/turkey>

2. MacroTrends. Olingan:

<https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/tur/turkey>

3. TradingEconomics. Olingan:

<https://tradingeconomics.com/turkey/indicators>

4. Rasmiy Turkiya Statistika Instituti. Olingan:

<https://www.tuik.gov.tr/Home/Index>

5. Turkiya

Markaziy

Banki.

Olingan:

<https://www.tcmb.gov.tr/wps/wcm/connect/en/tcmb+en>